

## **ELITA TUSHUNCHASI VA UNING REKRUTATSIYASIGA OID USULLAR**

*Ilxomov Nasimjon*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti  
Ijtimoiy fanlar fakulteti "Siyosatshunoslik" yo'nalishining  
3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada elita tushunchasi va funksiyasi hamda xususiyatlari, taniqli olimlarning nazariyalari, saralash bosqichlar va uni rekrutlash usullari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Elita, elitalogiya, siyosiy elita, siyosiy partiya, rekrut, gildiya, antraprenir, mafkura, resurs, institut, hokimiyat, tendensiya, ma'muriy.

Elita fransuzcha "elite" so'zidan olingan bo'lib, eng yaxshi, saralangan degan ma'nolarni o'z ichiga oladi. Elita - bu jamiyatning qolgan qismiga nisbatan nomutanosib miqdorda hokimiyat, ta'sir va boylikka ega bo'lgan odamlar guruhi. Bu guruh ijtimoiy sinf, siyosiy mansublik yoki boylik kabi bir qancha omillar bilan belgilanishi mumkin.<sup>1</sup> Elita sohalarda ham, tizimda ham, institutda, xattoki maqsadlarda ham elita mavjud.

Siyosatshunoslikda siyosiy elita siyosiy boshqaruvning funksiyasi va uni harakatlanishini tavsiflovchi institut sifatida qaraladi. Ya'ni u siyosiy faoliyat turi bo'lib, butun jamiyat, tashkilot yoki harakatni ham boshqaruvchi ijtimoiy hayotda guruh yoki qatlam vazifasini bajaradi. Siyosiy elitaning ilmiy talqinida insonlarning hokimiyatga bo'lgan ta'sirini baholash yotadi. Ta'sir esa o'zining ko'rsatgichiga va darajasiga ega. Bundan shuni korish mumkinki insonlarni siyosiy hokimiyatni anglash darjasasi qanchalik rivojlansa siyosiy elitaga saralanish ham shunchalik o'zgarib boradi.

Jumladan siyosiy elitaning muhim xususiyatlar zamонавија jamiyatda quyidagilar bilan belgilanadi.

- Elita vakillari uchun xos bo'lgan alohida hujjat
- Elita ommaga qanchalik javobgar
- Elitani rekrutatsiyasi
- Elita jamiyatga konstruktiv yoki distruktiv ta'sir ko'rsatadi

Dunyoda turli inqirozli vaziyatlarga, siyosiy transfarmatsiyaga qaramay elita mavjudligini saqlab qolmoqda. Boisi shuki „uyushmagan ko'pchilikdan uyushgan ozchilik yaxshi va uning hukmronligi muqarrar“, deya ta'kidlaydi italiyalik taniqli siyosatshunos, sotsiolog Gaetano Mosko. U o'zining 1896-yilgi "Siyosatshunoslik asoslari"<sup>2</sup> nomli kitobida, odamlar ikki sinfga: "boshqaruvchilar hamda

<sup>1</sup> [https://www.academia.edu/39674901/Elites\\_History\\_of\\_the\\_Concept](https://www.academia.edu/39674901/Elites_History_of_the_Concept)

<sup>2</sup> <https://www.acarindex.com/pdfler/4021-9037.pdf>

boshqariluvchilar”ga bo‘linadi, degan tendensiyani ilgari suradi. Birinchisi hamma siyosiy funksiyalarni bajaradi, hokimiyatni monopoliya qiladi va juda ko‘p afzalliklarga ega. Ikkinchi sinf esa birinchi sinf tomonidan boshqariladi, tartibga solinadi va siyosiy organizmning hayotini ta’minalash uchun moddiy vositalar bilan ta’minalaydi. Va u elitani: “Hokimiyatga yo‘naltirilgan eng faol siyosiy odamlar”, deya tavsiflaydi.

Bugungi zamonaviy siyosiy elita jamiyatni nazorat qiladigan, jamiyat a’zolarning ijtimoiy mavjudligiga yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladigan va hulq-atvor namunalarini ko‘rsatadigan qatlam elita qatlami hisoblanadi. Ya’ni bugungi zamonaviy jamiyatda elitaga saralanishda to‘rta omil asosiy ro‘l o‘ynaydi:

1. Mafkura
2. Kuch
3. Resurs
4. Ma’naviyat (bilim, ko‘nikma, tajriba, salohiyat)

**Elitani uch turga ajratishimiz mumkin:**



Oliy toifaga: Prezident, Senat raisi, Konstitutsiyaviy sud sudiysi, Bosh prokror...

O'rta toifaga: Bosh vazir, vazirlar, hokimlar...

Ma'muriy toifaga esa: Mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda davlat xizmatchilari kiradi

**Zamonaviy elitaga saralanish bosqichlari:**

1. Yollanish (tanlov)
2. Tanlash
3. Muvoifiqlashish (rekrut)



**Gildiya** – bu elita qatlamiga saralanishning yopiq tizimi deb yuritiladi. Belgilari:

- 1) Mansab darajalariga juda sekinlik bilan ko‘tarilish
- 2) Yuqori mansablarga tanlov elitaning quyi qatlamlariga tayanilishi
- 3) Tanloving murakkabligi, rasmiy talablarning ko‘pligi (yosh, jins, ish, staji, tavsifnomalar...)
- 4) Tanlov o‘tkazuvchining yopiq bo‘lishi (yuqori mansabdor shaxsning xulosasi yo ko‘rsatmasi yoki qaroriga bog‘liq bo‘lishi)
- 5) Oldin mavjud bo‘lgan elitarlikning takrorlanishi (oldin shu sohada ishlaganmisiz ...)

**Antraprenirlik** - bu elitaga saralanishning ochiq tizimi deb yuritiladi. Belgilari:

- 1) Yuqori mansabni egallahsga barcha davogar bo‘lishi
- 2) Tanlovda rasmiy talablarning kamligi, institutsional tavsiyalarning yuqoriligi (oilasi yaxshi bo‘lgan, u o‘zini o‘qishda yaxshi tutardi...)
- 3) Tanlovda raqobat jarayoning mavjudligi yuqori mansablarni egallahsha shaffof hamda holislik amalarini amal qilishi
- 4) Elitaga saralanishda individualikni birinchi daraja ahalyat kasb etishi (shaxsiy sifatlar, ommani qullab-quvvatlashiga erisha olish, qiziqarli taklif va dasturlar bilan chiqa olish, boshqalarni o‘ziga jalb qila olish).

**XULOSA:** Siyosiy elita bajarayotgan funksiyasining jamiyat uchun foydalilik yoki samaralilik darajasini bilish uchun uni rekrutlashga talab oshadi. Zamonaviy siyosatshunoslikda siyosiy elitani rekrutatsiyasiga doir yuqoridagi ikkita tizim sohholatda uchratilmasada, biroq unga bo‘lgan talab ehtiyoj darajasiga ko‘tarilgan. Natija shuki samarali elita rekrutatsiyasi elita karyeryasiga tengdir.

**Zamonaviy elitalogiyada rekrutatsiya tizimi:**

- a) **Komplekslilik**
- b) **Xolislik**
- c) **Uzliksizlik**
- d) **Ilmiylik tamoyillarini talab etadi.**

Bunda elita karyerasida elitaga kiruvchi individning kasbi, yoshi, ish tajribasi, ma'lumoti, malakasi, jinsi, qo'shimcha ixtisosligi muvoffiqlashishining manbayi hisoblanadi.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. [https://www.academia.edu/39674901/Elites History of the Concept](https://www.academia.edu/39674901/Elites_History_of_the_Concept)
2. <https://www.acarindex.com/pdfler/4021-9037.pdf>
3. <https://www.jstor.org/stable/41854775>
4. <http://hozir.org/mavzu-siyosatshunoslik-fani-predmeti-maqsad-va-vazifalari.html?page=127>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/sistema-rekrutirovaniya-sovetskoy-pravyaschey-elity-obschee-i-spetsficheskoe>